

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.M.Maxmutaliyev</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kuch jismoniy sifati va uni tarbiyalash uslublari.....	111
<b>G.S.Sidiqova</b>	
Hozirgi kun jismoniy madaniyat yo'riqchilarining klassifikasiyası .....	118
<b>X.X.Xaydaraliyev</b>	
O'quv mashg'ulotlari davomida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirish.....	123
<b>R.A.Hamroqulov</b>	
Salomatlik testi talab va me'yorlarini topshirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkillash .....	128
<b>E.I.Allomov</b>	
Maktab o'quvchilarini harakat faoliyatining yoshga xos me'yorlari .....	134
<b>T.A.Eshimov</b>	
Kasb - hunar maktablari o'quvchilarining jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari tahlili.....	141
<b>Sh.M.Robilova</b>	
O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligi .....	147
<b>Q.M.Xakimov</b>	
Yosh voleybolchilarda jismoniy ish qobiliyati va uning funksional komponentlarini shakllantirish masalalari.....	150
<b>Sh.V.Djalalov</b>	
O'rta yoshdagagi qizlarda egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasi (5–9-sinflar) jismoniy tayyorgarlikning tabaqaqalashtirilgan tizim asosida.....	155
<b>X.M.Sotvaldiyeva</b>	
Ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish usullari .....	159
<b>S.I.Quziyev</b>	
Ingliz tilini o'qitishda smart ta'limgan texnologiyalari orqali virtual turizmni takomillashtirishning pedagogik usullari .....	162
<b>N.K.Ergasheva</b>	
Methodology and outcomes of english language teaching .....	168
<b>M.Axmedova</b>	
Maxsus yo'nalish talabalarining eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishda autentik materialarning roli.....	172
<b>G.Astonova</b>	
Germaniyada ta'limgan tizimini boshqarishning hududiy xususiyatlari.....	176
<b>G.R.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
Germaniya va O'zbekiston ta'limgan tizimida o'xshash va farqli jihatlar .....	179
<b>N.A.Abduvaliyeva, U.Sh.Abduvoxidova</b>	
Nutq o'stirishning metodik usullari .....	183
<b>M.S.Ro'ziboyeva</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bag'rikenglik dunyoqarashini tarbiyalash: nazariy va amaliy yondashuvlar .....	188
<b>N.N.Nabiyeva</b>	
Triz texnologiyasi vositasida ta'limgan oluvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mazmun va mohiyati .....	193
<b>D.I.Asqarova</b>	
Oliy ta'limgan tizimidagi islohotlar yangicha yondashuvlar .....	197
<b>D.T.Yuldasheva</b>	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirishda neyropedagogikaning imkoniyatlari .....	202
<b>Y.A.Mirzaboyev</b>	
Nostandart masalalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matematik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi .....	206
<b>R.Sh.Sharofutdinova</b>	
Ko'zi ojiz o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari .....	210
<b>Sh.T.Mavlonova</b>	
Inkluyuziv ta'limgan o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik-psixologik,	



УО'К: 613.94

**HOZIRGI KUN JISMONIY MADANIYAT YO'RIQCHILARINING KLASSIFIKASIYASI**  
**КЛАССИФИКАЦИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНСТРУКТОРОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ**  
**CLASSIFICATION OF MODERN PHYSICAL CULTURE INSTRUCTORS**

Sidiqova Gulbahor Sabirovna 

Farg'ona davlat universiteti, Jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrasiga o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Ushbu tadqiqot umumiy ta'llim maktabalarida jismoniy madaniyatni tashkil etish va uyushtirish jarayonida o'quvchilarni mustaqil faoliyatga jaib qilishning ehamiyatini ko'rsatadi. Maktab jismoniy madaniyat jamoasi o'quvchilarni jismoniy mashqlar va sport faoliyatları orqali tarbiyalashni maqsad qilib, ular orasida boshqaruv, rahbarlik va tashkilotchilik malakalarini rivojlantiradi. Bu jarayon matab ta'llimining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, jismoniy madaniyat va sport sohasidagi mutaxassislarining yordami bilan o'quvchilarning hayotiy faoliigini oshirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalanga ko'ra, jismoniy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish faqat ta'llim jarayonida jismoniy tarbiya yo'rIQchilari va sport mutaxassislarining ishtiropi bilan amalga oshirilishi muhimdir. Bu yondashuv, o'quvchilarning bo'sh vaqtinani mazmuni o'tkazish va jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Monitoring orqali o'tkazilgan tadqiqotlar, bunday faoliyatning o'quvchi yoshlar ta'llimida o'z omrini topishini va ularning jamiyatda faol ishtirop etishiga ko'maklashishini tasdiqlaydi.*

**Аннотация**

Данное исследование демонстрирует важность привлечения учащихся к самостоятельной деятельности в процессе организации и проведения физической культуры в образовательных школах. Физкультурная команда школы ставит целью воспитание учащихся через физические упражнения и спортивные мероприятия, развивая у них навыки управления, лидерства и организации. Этот процесс является одной из основных задач школьного образования и направлен на повышение жизненной активности учащихся с помощью специалистов в области физической культуры и спорта. Согласно результатам исследования, эффективная организация физических занятий возможна только при участии педагогов физической культуры и спортивных специалистов в образовательном процессе. Такой подход создает необходимые условия для содержательного проведения свободного времени учащихся и занятия физическими упражнениями. Исследования, проведенные в рамках мониторинга, подтверждают, что такая деятельность находит свое место в образовании молодежи и способствует их активному участию в обществе.

**Abstract**

*This research demonstrates the importance of engaging students in independent activities during the organization and implementation of physical education in general education schools. The school physical education team aims to educate students through physical exercises and sports activities, developing their management, leadership, and organizational skills. This process is one of the main tasks of school education and is aimed at increasing students' life activity with the help of specialists in physical education and sports. According to the research results, effective organization of physical activities is crucially dependent on the participation of physical education instructors and sports specialists in the educational process. This approach creates the necessary conditions for students to spend their free time meaningfully and engage in physical exercises. Research conducted through monitoring confirms that such activities find their place in the education of young students and contribute to their active participation in society.*

**Kalit so'zlar:** Jismoniy madaniyat, jismoniy madaniyat, yo'rIQchilar, klassifikatsiya, sport, jamoatchilik, tashkilotchilik, rahbarlik, sport turlari, o'quvchilar, faollar, tashkillashtirish, o'quv tarbiyaviy ishiar, jamoatchilik, jismoniy tarbiya yo'rIQchilari, mustaqil hayot, boshqaruv, rahbarlik, tashkilotchilik, malakalar, hayotiy faoliyat, jismoniy mashqlar.

**Ключевые слова:** Физическая культура, физическая культура, инструкторы, классификация, спорт, общественность, организация, руководство, виды спорта, учащиеся, активисты, организация, учебно-воспитательная работа, общественность, инструкторы физической культуры, независимая жизнь, управление, руководство, организационные навыки, жизненная активность, физические упражнения.

**Key words:** Physical culture, physical culture, instructors, classification, sports, community, organization, leadership, sports types, students, activists, organization, educational and training activities, community, physical education instructors, independent living, management, leadership, organization, skills, life activities, physical exercises.

**KIRISH**

Umumiy ta'lif maktabi jismoniy madaniyati va uni tashkillash jarayoni, o'zining mazmuni, vositalari, tashkillash metodlari, mashg'ulotlarining shakllari, ularni o'tkazishdan ko'zlangan maqsadi va vazifalarini hal qilishda amaliy yordami tegayotgan o'quvchilardan iborat jismoniy madniyat faollari – jamoatchi yo'riqchilar va jamoatchi hakamlarni tayyorlashdek pedagogik jarayonga yangicha qayta qarash zaruriyatligini, pedagogik aspektlarini qayta o'rganish natijalari tadqiqotlarimiz davomida ko'zga tashlanib qoldi.

O'quvchi jismoniy madniyatini shakllantirishda soha mutaxasislarining faoliyatida ahamiyat muhim jamoatchi faollari – jismoniy madniyat yo'riqchilarini va jamoatchi sport yo'riqchilarini jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishda ommaviylikni amalga oshirishda, mashg'ulotlarga odatni shakllantirishda vositachiliklar bebaho sanalgan o'quvchilarni tayyorlash muammoning dolzarbligini ko'rsatib qo'yish orqali yildan - yilga olib borayotgan qiyosiy maqsadli, tizimli taxllilarimiz natijalarida ko'zga yaqqol tashlanib qoldi.

Sababi mamlakatimiz o'quvchilari turmush tarziga gipodinamiya, kipokeniziyaning keskin kirib kelishi, natijada harakat faolligini o'ta kamayishi, sohaga innovasiyalar, boy, sinalgan, mamlakatimiz mutahasislari hamda Horij tajribalari va innovasiyalarga muhtojligini, muammoning tub negziga yangicha pedagogik qarashlar qilish lozimligini zaruratligini isbotlab o'lgurdi. Shuning uchun ham mavzu jamoatchi jismoniy madniyat faollarini tayyorlash, ularni muloqatga, boshqaruv, yetakchilik, ma'suliyat, boshqani fikrini qabul qilish, o'z fikrini asoslash, bo'y sunish, eshita bilish, o'zidan kuchlini(tan olish,farosatliga hurmat baja keltirish va h.k.lar)ni "og'riqsiz hazm qilish"ga o'rganish, sabr, chidam, e'tirof etish,o'ziga boshqani ko'zi bilan qarashga o'rganish va boshqa qator insoniylik(fitrat)ni tarbiyalashdek jihatlarni asta sekinlik bilan o'zida mujassamlashtira borishni yo'riqchi, hakamlik malakalarini egallah maktabini o'tish imkonini borligini asoslash tadqiqotimizning maqsadi qilib olik.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Umumiy ta'lif maktablari jismoniy madniyati va sporti o'quvchi talaba yoshlarning to'laqonli jamiyatimiz a'zosi bo'lib ularning hayotida, intellektual va jismoniy shakllanishi va hayotiy – zaruriy harakat malakalarini zahirasini shakllanishi va takomillashishi hamda boyishida yetakchi vositalar ekanligiga davogarlik qilmoqda. Chunki, jamiyatimiz a'zolarining individ sifatida jismoniy madniyatining poydevori umumiy ta'lif maktabidagi tahsil olish yillari davomida qo'yiladi va amalga oshirilayotganligi qator yillar davomida o'zining isbotini topib ulgurdi.

Qayd qilingan tagzaminni yaratishda maktabning jismoniy madniyati bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni zamon talablari darajasida yo'lga qo'yish, uning faoliyatini jismoniy madniyat yo'riqchilar bilan amalga oshirishdek masuliyatlari vazifani hal qilish jamiyatimiz a'zosi uchun zarur sanalgan boshqaruv malakalarini egallagan, o'z ortidan ommani ergashtira oladigan individni shakllanishi,aqliy,ruhiy,ma'naviy shakllangan shaxslarni tarbiyalash maktablarning jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlarni orqali yo'lga qo'yiladi.Jismoniy madniyat yo'riqchilarini tayyorlash va ularning faoliyatini o'quvchilik yillarda amalda sinash,boshqaruv malakasiga ega bo'lgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash bo'yicha boy tajribani umumlashtirish mavzu dolzarb ligini ko'rsatadi.

Ushbu ilmiy-tadqiqot ishimiz mamlakatimiz umumiy ta'lif maktablarini jismoniy madniyatini yo'lga qo'yishning asosiy peda gogik jarayonini, ya'ni jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishla mi amalga oshiruvchi jamoatchi jismoniy madniyat yo'riqchilarini tarbiyalash, ularning seminarlari, amaliy malakalariga oid nazariy bilimlarni umumlashtirishga oid boy ish tajribasini ommalashtirishni tadqiqotimizning asosiy maqsad qildik.

Professor T.S.O'smonxadjayev (2005) "500 harakatli o'yin" o'quv uslubiy qo'llanmasiga yozgan "So'z boshi"sida harakatlari o'yinlar klassifikasiyasini tarkibida sinfdan tashqari jismoniy madniyat tadbirlarida faqat jismoniy madniyat yo'riqchilariga tayanish lozimligi o'qtirilgan. Faqat o'qituvchilar maktabning ko'p sonli o'quvchilarini sinfdan tashqari ishlarni hamda maktab jismoniy tarbiya jamoasining faoliyatini tashkillash ishlarni uyushtirish va o'tkazishga qodir emasligini, bu ishda maktab jismoniy madniyat yo'riqchilarini yetakchi kuch ekanligini eksperimentlarimiz orqali aniqlaganligimizni BMI ning birinchi va ikkinchi boblarida berishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

B.N.Minayev, B.M.Shiyan "Основы методики физического воспитания школьников" nomli o'quv qo'llanmasida maktab o'quvchilarining sog'lom turmush tarzi jismoniy madniyati

mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish, salomatligi yoki sportning biror turi bilan yuqori natijalarni maqsad qilmay shug'ullanadigan o'quvchilarining mashg'ulotlarini olib borishga jismoniy madaniyat yo'riqchilarini jalb qilish yaxshi natija berganligini eksperimental maktablarda sinab ko'rganligimiz va natija e'tiborli darajada bo'lganligini ta'kidlamay ilojimiz yo'q.

Maxsus adabiyotlar, internet materiallarining guvohlik beri shicha hozirgi kunda muammoga oid boy tajriba faqat mamlakatimizda emas Horij mamlakatlari, ayniqsa Rossiya federasiyasining umumiy ta'lif maktablarida ham katta e'tibor berilayotganligini guvohi bo'ldik.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Umumiy ta'lif maktablari, jismoniy madaniyatini tashkillash va uyushtirishning asosiy,yetakchi ish yo'nalishlaridan biri maktab o'quvchilaridan tashkillangan jismoniy madaniyat faollarini tanlab tayyorlash va ulardan muktab jismoniy madaniyati va sporti jarayonida foydalanish muktab jismoniy madaniyat jamoasining jamoatchilik asosida tashkillanadigan o'quv tarbiyaviy ishlari hisoblanadi. Aslida, jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiyasi jarayonida o'quvchi talaba yoshlarni ta'limiy, tarbiyaviy, tashkiliy, boshqaruv va ijrochilik faoliyatlariga jalb qilish shu kunning talabi. Qayd qilingan o'quvchilarining jamoatchilik asosida tashkillanadigan mustaqil hayotida duch kelishi mumkin bo'lgan boshqaruv, rahbarlik, tashkilotchilikning boshlang'ich malakalarini yuzaga keltiradigan va ularning hayotiy faolligini oshirish, turmush tarzidagi hayotiy jarayonlarga tayyorlash uchun xizmat qilishda vosita sifatida muktab ta'limi, tarbiyasida o'z o'mini topdi. Bunday faoliyat sohiblari - o'quv muassasalarida tayyorlanayotgan jamoatchi jismoniy madaniyat va sport yo'riqchilarining yordamisiz o'quvchilarini jismoniy mashqlar bilan maqsadli shug'ullanishi, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishining samaradorligi faqat muktab o'qitsvchilari zimmasi bo'lishi o'zini shukun jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiyasi jarayonida o'zini oqlamadi. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlarini tashkillash uchun muktabning faqat jismoniy tarbiya o'qituvchilarini, muktab sporti mutaxassislari orqali ommaviy jismoniy madaniyat va sport ishlarini amlaga oshirib bo'lmasligi biz o'tkazgan muammoga mansub tadqiqotlarimiz orqali o'tkazgan monitoringimiz orqali ham aniqlandi.

"Muktab o'quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishda sinfdan tashqari ishlari jarayoni, muktab sporti, jamoadagi ommaviy jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishlari, muktab jismoniy tarbiya jamoasi faoliyatini sinfdan tashqari ishlarning boshqa shakkari bilan qo'shib tashkillash va o'tkazishdan iborat maqsadli ta'limiy va tarbiyaviy jarayondir" deb yozadi A.Abdullayev, R.Rasulov,A. Xasanovlar muammoga oid o'zlarining o'quv qo'llanmalarida. Bunday ko'p qirrali jarayonni jismoniy tarbiya yo'riqchilarisiz tasavvur qilish qiyin.

O'tgan asrning 60.80-yillari davomida muktabning sinfdan tashqari ishlari faqat jismoniy tarbiya o'qituvchilari, taklif qilinganlar yoki o'zi xohish bildirib, bolalar sportiga yordam berishni xohlagan jamoatchi murabbiy va yo'riqchilar hamda muktabning jamoatchi yo'riqchilar yordamida amalga oshirilgan.O'sha davr sportini rivojlantiruvchi tashkilotlar, ular ko'ngilli sport jamiyatları(KSJ) deb nomlanib ularning muktab o'quvchilarini bilan ishlashni xohlaganlar - otaliq tashkiloti vakili sifatida muktab sportining rivojlantirish bilan jamoatchilik asosida shug'ullanganlar.

Hozirgi kunga kelib sinfdan tashqari ishlarning tarkibidagi shakkarni ko'payib ketishiga qaramay ularni olib borish, boshqarish ishlariiga o'qituvchilar tashabbusi bilan jalb qilingan o'quvchilar soni aytarli darajada ko'p emasligi,jamoatchi jismoniy madaniyat yo'riqchisi, jamoatchi jismoniy madaniyat xakami bo'lib faoliyat ko'rsatuvchilarining soni ko'p emasligi ko'zga tashlanib goldi.

Bunday nomuvofiqlikni yuzaga kelishi sinfdan tashqari ishlari orqali o'quvchi egallashi lozim bo'lgan hayotiy zaruriy malaka va ko'nikmalarni mohiyatni mazmuni va amaliy ahamiyatini o'quvchilar orasidagi targ'ibot va tashviqot ishlari o'quvchilar orasida yetarli darajada amalga oshirilmayotganligini aniqladik.Biz nazorat va eksperimental sinf tarzida tanlagan muktab o'quvchilarini va jismoniy tarbiya o'qituvchilarida o'tkazgan anketa savollariga javoblarimiz bizni hayron qoldirmadi.

So'rovda ishtirok etgan Farg'ona shahrining 1,3,6, UTMlarining 80 ga yaqin 8-10 sinf o'quvchilar "muktab jismoniy madaniyat jamoasi", unda olib boriladigan jamoatchilik asosidagi sport yo'riqchilarini faoliyati haqida tushunchalari talab darajasida emasligini ko'rsatdi. Respondentlarning 84% "jamoatchi jismoniy madaniyat yo'riqchisi kim ?" - degan savolga "yo'riqchi kimligini bilmaymiz"deganlar - 51%, "jamoatchi hakam tushunchasiga ega emasmiz" deb javob bergenlar - 61% ni tashkil etdi."jismoniy madaniyat yo'riqchilarini, sport hakamlari tayyorlash seminari haqida eshitganmisiz ? –deb qo'ygan savolimizga so'rov ishtirokchilarining 76%

## PEDACOGIKA

eitganimiz yo'q deb javob berdilar."Maktab sport musobaqlariga o'quvchilarni tayyorlashda o'quvchilar trenerlik qiladigan sinf jamoalarini bilasizmi? – deb qo'yan savolimizga ularni 80% ga yaqini yo'q, o'qituvchilar trenerlik qiladilar" - deb javob berdilar."Maktab sport musobaqlarida faqat jismoniy tarbiya o'qtiuvchilari hakamlik qiladi deganlar so'rovda ishtirok etganlarni 79 % ni tashkil etdi." har doim o'qituvchilar tayyorgarlikni amalga oshiradilar" deb javob qaytardilar. O'quvchilar hakamlik qilishga jalb qilinmaydimi deb bergan savolimizga "Musobaqada janjal yuzaga keladi deganlar" ishtirokchilarning 53%dan ortig'ini tashgkil etdi. Sosiologik so'rovlarimizda ishtirok etgan Farg'ona shahrining 3 ta maktabidagi jismoniy madaniyat yo'riqchilar(jami 80ga yaqin) bilan o'tkazgan anketa savollarining javoblari bizning xulosamizni tasdiqladi.

Tajriba - sinov mакtablarimizdagи tajaribalarimizdan so'ng tajriba mакtablarida yo'riqchilarni tanlash va ularni tayyorlashda o'tkazgan anketa savollariga olgan javoblarimiz jamoatchi yo'riqchilar mакtab o'qituvchilarining yordamchi bo'laolishini isbotladi. Ulardan "O'z xohishim bilan faoliyatiga qatnashmoqdaman", degan o'quvchilar soni faqat 16,2% ni, meni o'qituvchimiz tanlab "jamoatchi bo'lsan deb aytdi" degan respondentlar 30,3 % ni, 23,4 % esa "sinfdoshlarimning jamoatchilik faoliyatini ko'rganimdan so'ng o'zim qiziqib shu faoliyatga qatnasha boshladim", qolgan atrofidagilar "vaqtimni befoyda o'tkazmayman degan maqsadda shu faoliyatni tanladim" - deganlar 10% soni tashkil etdi.O'qituvchi tanlab majburlashdan so'ng faoliik bilan shug'ullanuvchilar soni ko'pligi, ularning o'z vazifalariga munosabatlari, ularni tanlash usulubiyotlari haqida keyinroq batafsil ma'lumot beramiz.

Bitta mакtab uchun jamoatchi yo'riqchi jamoatchi sport xakami,boshqa yo'riqchilar qancha bo'lishi kerak deb savol qo'yib unga aniq javob lar topishga urindik. Chunki instruktiv xujjalardan bu savolga javob topmadik. Ularning umumiyl miqdoriga oid aniq raqamni avvaliga maxsus adabiyotlardan ham topmagan edik.

Tadqiqotlarimiz davomida sinfdan tashqari ishlarning faqat "maktab musobaqlari shakli"ning o'zi uchun("Umid nihollari" musobaqlarini 1-2 bosqichlariga) jamoatchi sport hakamlarining o'zi ning" 15 dan ortiq sport turi bo'yicha mакtab birinchiligiga, barcha mакtab yoshidagilar uchun bir kunlik musobaqlarning o'ziga 40 dan ortiq maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan sport hakami, jamoatchi yo'riqchiga zaruriyat borligini aniqladik.

Albatta ko'psonli jamoatchi o'quvchilar yordamisiz mакtab o'quvchi larini sport seksiyalarini, "Umumiyl jismoniy tayyorgarlik guruhlari"da mashg'ulotlarni, mакtabning JMJ-sining faoliyatini yo'lga qo'yib bo'lmasligi hozirgi kunda isbotlangan.

Agar mакtabning bitta sport turi bo'yicha o'g'il bolalar uchun tashkillangan sport seksiyalari - beshta o'quv guruhidan iboratligi( tayyorlov, kichik mакtab yoshdagilar, o'rta mакtab yoshdagilar, katta mакtab yoshdagilar, terma jamoa) uchun alohida tashkillanishi e'tiborga olinsa, faqat bitta mакtab spor seksiyasida jamoatchi yo'riqchilar 100 dan ortiq o'quvchilarni o'zida mujassamlashtiradi.Agar ularga qizlardan iborat guruhlar qo'shilsa yana 100 o'quvchi qiz qo'shiladi. Ularni 15-18 tadan alohida o'quv guruhiga ajratishga to'g'ri keladi, jamoalarning soni 11-12 ta bo'lishi mumkin.

Xulosa qilsak, bitta sport turi, masalan voleybol seksiyasi bo'lisin. Unda voleybol seksiyasi uchun kamida 15 nafar faqat trenirovka o'tish uchun jamoatchi faol (yo'riqchi) kerak bo'ladi. Ayrim sport turlarining o'quv guruhlari bittadan emas birnecha o'quv guruhlaridan tashkillansa ularning soni undan ikki barobarga ortadi.

Sinfdan tashqari ishlarni mакtab jismoniy madaniyat yo'riqchilarisiz boshqarish mumkin bo'lmay qolganligi sababli mакtab sport seksiyalarining faoliyati umuman yo'lga qo'yilmaganligini tajriba sinoa mакtablarida guvohi bo'ldik (Farg'ona shahrining 1,2,3,5,9 mакtablari). Faqat voleybol uchun 20dan ortiq yo'riqchi va yana shuncha sport hakamini tayyorlash lozim bo'ladi. Demak, jismoniy madaniyat yo'riqchilarisiz sinfdan tashqari ishni yo'lga qo'yishda muammolarning sababları yuqorida qayd qilganlarimizdir. Bundan tashqari bir sport turi seksiyasi faoliyatini boshqarish, o'sha seksiyani musobaqlarga tayyorlash, musobaqada ishtirok etish, shu sport turi yo'riqchilari va hakamlarini tayyorlovchi seksiya byurosi a'zolaridek yo'riqchilarga ham muhtojilik bor.

Tasavvur qiling, faqat «Umid nihollari» musobaqlarida qatnashish uchun, masalan, voleybol mакtab sport seksiyasida mashg'ulotlar o'tkazishni o'ziga 30 dan ortiq, jismoniy tarbiya yo'riqchilari zarur bo'lmoqda. Agar o'nta sport turidan seksiya mashg'ulotlari yo'lga qo'yilsa, kamida 300 ga yaqin faolni-jismoniy tarbiya yo'riqchilarini tayyorlashga to'g'ri kelmoqda.Maktab sport

maydonlarining barchasi haftaning hamma kunlarda band, maydonlarni bo'sh qolgan vaqt bo'lmasligi, shundagina sport seksiyalari jadvali faqat sport turlari bo'yicha matabning terma jamoalarini uchungina emas, seksiyaning barcha guruhlarimashg'ulotlarini o'zida mujassamlashtirilishi lozim.

Hozirgi kunda biz o'rgangan aytarli barcha umumiylar ta'lilmaktablarida(ular 30 ga yaqin umumta'lilmaktablari bo'lib) seksiya mashg'ulotlari jadvali fakat terma jamoalar uchungina tuzilgan. Sababi seksiyalarni sport seksiyasining byurosi tarkibiga kiruvchi sport yo'riqchilarini boshqarmasligini, ularning faoliyati yo'lga qo'yilmaganligini aniqladik. Seksiyaning kengashi(Byuro) si a'zolari o'sha sport turi uchun yo'riqchilardan iborat bo'lishi va «yo'riqchi»lar tayyorlash seminarini o'tgan bo'lishi kerak. Shu bilan seksiya faoliyati to'liq yo'lga qo'yiladi. Demak, sinfdan tashqari ishlarning yetakchi shakllaridan biri jismoniy tarbiya va sport yo'riqchilarini tayyorlashdir.

### XULOSA

Pedagogik kuzatishlarimiz, eksperimental va nazorat maktablarimizdagi tajribalarimiz natijalariga asoslanib, hozirgi kun Farg'ona shahar maktablarining jismoniy madaniyati amaliyotida sinfdan tashqari ishlar uchun jismoniy madaniyat va sport yo'riqchilarini klassifikasiyasini shakllantirilgan deb aytaolmasligimiz aniq, sababi mamalakatimiz umumta'lilmaktablarida maktab o'qituvchilarini o'quvchilardan jamoatchi yo'riqchilarning zaruriyati mavjudmi degan anketa savollariga olgan javoblarimizning natijalarini monitoringi deb ayta olamiz. Chunki bunga tadqiqotlarimiz natjalari guvohlik bermoqda.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

12. Xankeldiyev Sh.X., Abdullayev va boshqala. "Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari". Uslubiy qo'llanma. "Farg'ona" nashryoti, 2011.257 s.
13. Abdullayev A., Rasulov R., Xasanov A., Umumiylar o'rta va kasb-xunar ta'limi fizimlarida jismoniy tarbiyada sinfdan tashqari ishlar.T. 2009 y.
14. Xonkeldiyev Sh, Abdullayev A. va boshqalar. Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati o'quv qo'llanmasi. "Farg'ona" nashriyoti, 2010.
15. Xonkeldiyev Sh, Abdullayev A. va boshqalar. Kasb-hunar kollej lari o'quvchi yoshlarining sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati "Farg'ona" nashryoti, 2011.
16. Abdullayev A., Xankeldiyev Sh. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik (3-to'ldirilgan nashri). Farg'ona -2021. "Poligraf Super Servis" MCHJ nashryot matbaa bo'limi" sah. 476.